

yordamida ishlaydigan va oliv ta’lim talabalarini o‘qitishda bevosita ishlatiladigan vositalarni nomlash uchun ishlatiladi.

Ijtimoiy mediadan foydalanish texnologiyasini umumiylar ma’noda o‘rganayotganda, ma’lum taxmin bilan elektron o‘quv vositasi konsepsiyasini yaratish mumkin. Yaratilgan elektron vositalarga nom berish uchun ikkala atamani ham ishlatish asosli, chunki ijtimoiy media bilan bog‘liq terminologiya 2002 yilda yaratilgan “O‘quv elektron nashrlari va manbalarini yaratish konsepsiysi”da yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, unda talablar batafsil bayon qilingan. Ijtimoiy medianing sifati, bu elektron o‘quv vositalarini yaratishda e’tiborga olinishi kerak. Elektron nashr bu grafik, matn, raqamli, nutq, musiqa, video, foto va boshqa ma’lumotlar to‘plamidan iborat. Bitta elektron nashrda axborot manbalari (yoki axborot va ma’lumotnomalar), axborotni yaratish va qayta ishslash vositalari va boshqaruv tuzilmalarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Zamonaviy multimediya texnologiyalari bu borada ulkan salohiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2012.
2. Maxkamova G. T., Alimov SH. S., Ziyayev A.I. Innovative pedagogical technologies in the English language teaching. – Tashkent: Fan va texnologiya. 2017.
3. Sattarov T.K. Formirovaniye professionalnix umeniy budushego uchitelya inostrannogo yazika na prakticheskix zanyatiyax po spetsialnosti (na materiale angliyskogo yazika): Avtoref.dis...d-ra ped.nauk.-Tashkent, 2000. Solovova YE.N. Metodika obucheniya inostrannim yazikam. Prodvinutiy kurs. – M. AST: Astrel, 2008.
4. Krashen D.S., Principles and Practice in Second Language Acquisition. University of Southern California. y Pergamon Press Inc., - 2009.

### **PSIXOLOGIK TERMINLARNING TADQIQI**

***Muhayyo XUDOYMURODOVA***  
*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti*  
*Xorijiy til va adabiyoti yo’nalishi*  
*1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada psixologik terminlar va uning o'ziga xos xususiyatlari hamda psixologik kitoblardagi ahamiyati haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, termin va terminologiya haqidagi eng aniq va umumiylar tushunchalar berilgan (bir qancha shu borada ish olib borgan olimlarning fikrlari asosida). Termin, so'z va atamalarning bir biridan asosiy farqlari va terminlarning ishlatalish holatlari haqida ham so'z borgan. Hamda psixologiya haqida qisqacha ta'rif va uning vazifalari, psixologik terminlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, psixologik terminlarning tarjimasi hozirgi kunda qay darajada muhimligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** so'z, termin, terminologiya, atama, psixologiya, psixologik termin.

Mazkur maqolada asosan psixologik terminlarning psixologik kitoblardagi tarjima xususiyatlari haqida so'z boradi, shunday bo'lishiga qaramasdan mutolaachilarga yanada tushunarliroq bo'lishi uchun avvalo termin va terminalogiya haqida umumiylar ma'lumot va bir qancha olimlarning fikrlarini keltirib o'tishni joiz topdim. Avvalo "termin" ga izoh beradigan bo'lsak, termin grekcha "terminos" so'zidan olingan bo'lib, "chek, chegara" degan ma'nolarni bildiradi [1]. Ma'lum bir sohaga oid tushunchalarning aniq nomini bildiruvchi bir ma'noli so'zlar va so'z birikmalari "termin" lar deyiladi. Yanada tushunarliroq izoh beradigan bo'lsak, N.A. Husanov, N.A. Dilmurodova "O'zbek tili" fanidan o'quv uslubiy majmuasida termin so'ziga quyidagicha izohlar keltirilgan:

- 1) Termin - umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo'lmish ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so'z yoki birikmadir;
- 2) Termin - konkret narsa-predmet, ashyo, mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir;
- 3) Termin uchun muayyan ta'rif (definitsiya) zaruriydirki, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda ma'lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorg joylashtirishga yo'l qo'yuvchi, farqlovchi belgilarni ravshanroq ko'rsatish mumkin [2].

O.S. Ahmedovning fikriga ko'ra "termin vaterminalogiya borasidagi nazariy fikrlarni o'rganib, umumlashtirgan holda, o'z kelib chiqishiga ko'ra "termin" zamonaviy tushuncha tamoyiliga asosan "xad", "chegara" emas, aksincha, muayyan sohalarda

(iqtisodiyot, qonunchilik, huquq, moliya, bank ishi, psixologiya, tibbiyot, siyosat) aniq tushunchani ifoda etadigan, maxsus vazifani bajaradigan so'z va so'z birikmalari bo'lib, o'zining semantik nuqtai nazaridan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan hamda shu sohaga oid tushunchani ifodalovchi leksik birlik” [3].

Berilgan izohlardan shuni anglash mumkinki, kundalik hayotda ishlataladigan oddiy so'zlardan terminlarni farqlash oson ya'ni so'z ko'p ma'noga ya'ni ma'lum bir so'zni qo'shimcha bir qancha ma'nolari bo'ladi ammo terminlarda bu xususiyat mavjud emas ya'ni termin ham so'z hisoblanadi biroq termin so'zdan farqli o'laroq ma'nosining aniqligi va asosan bir ma'noligi bilan farqlanadi. Ammo yaqin yillardan buyon xato hisoblanishiga qaramasdan, termin so'zi o'rniga atama so'zini ishlatalish ko'p kuzatilmoqda. Shu joyda “atama” so'ziga ham izoh berib o'tishimiz kerak. Atama terminga qaraganda ishlatalish holatlari kengroq va u barcha narsaning nomi sifatida tushuniladi. Terminlar esa, ma'lum bir sohada asosan shu sohada faoliyat olib boradiganlar orasida ko'p qo'llaniladi. Masalan, bemor, analiz, ko'rik, anamnez, oftalmolog, bint, jarohat, tampon, xirurgiya, operatsiya, kardiogramma kabi terminlar asosan tibbiyot ya'ni meditsina sohasida uchraydi. Terminologiyaga kelsak, terminologiya terminlar yig'indisi va terminlarni o'rganuvchi soha terminologiya deb ataladi.

Terminlar ma'lum bitta sohada ishlatalish holatiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi. Masalan, yuridik terminlogiya, tibbiyot terminologiyasi, psixologik terminologiya va boshqalar. Har bir bo'lim o'z sohasida qo'llaniladigan terminlar va ularning vazifalari, ishlatalish holatlarini o'rganadi. Psixologik terminologiyaning ham o'z vazifasi borki, bu shu sohada qo'llaniladigan psixologik terminlar va ularning ishlatalish holatlari bilan bog'liq har qanday vazifalarni o'rganadi va tahlil qiladi. Tushunarli bo'lish uchun psixologiya so'ziga va u nimani o'rganishi haqida umumiyligi tushuncha bermoqchiman. Psixilogiya yunoncha “psyuxe” jon, ruh, “logos” ilm, ta'limot degan ikki so'zdan olingan bo'lib, “jon yoki ruh haqidagi ta'limot” degan ma'noni bildiradi. Psixologiya tibbiyotning katta bir bo'limlaridan hisoblanib, psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini, psixik jarayonlar, psixikaning

insonga xos shakli bo'lmish ong va o'zini o'zi anglashini va inson shaxsining psixologik xususiyatlarini o'rganadi. Psixologiya falsafa fanlari negizida ham rivojlanib kelmoqda. Psixologiya ham ko'p tarmoqli tizimlardan iborat fan bo'lib, o'z taqdijot predmetlariga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi. shulardan eng ko'p uchratishimiz mumkin bo'lganlarini misol tariqasida keltirib o'tmoqchiman:

1. Umumiy psixologiya
2. Tibbiyot psixologiyasi
3. Ijtimoiy psixologiya
4. Yosh psixologiyasi
5. Oila psixologiyasi
6. Kasb psixologiyasi
7. Marketing psixologiyasi va boshqalar.

Hozirgi rivojlanayotgan davrda psixologiya hayotning har jabhasida muhim masalalarni hal qilishda faol ishtirok etmoqda. Keyingi yillarda psixologik kitoblar soni ham kundan kunga tobora ortib bormoqda, shu kabi kitoblarni o'qishga talab ham, kitobxonlar soni ham oshib bormoqda. Shu tufayli, psixologik talqindagi kitoblar ichidagi psixologik terminlarni kitobxonlarga va mualliflarga (qo'llashlari uchun) oson bo'lishi uchun psixologik terminlarni tadqiq qilib, ommaga sodda tilda yetkazib berish va izohlash dolzarb vazifalardan biri deb hisobladik. Psixologiyaga qiziqish tobora o'sib borayotganligi tufayli, psixologik lug'atlar, psixologik atamalar lug'atlar tayyorlash soni ham keskin oshgan, shunday bo'lishiga qaramasdan, olib borilgan tadqiqotlarda bu terminlarni ob'ektiv ishlatish, tushunish va tarjima qilishda hali hamon hal qilinmagan bir qancha muammolar uchrab turibdi.

Psixologik kitoblardagi psixologik terminlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bu xususiyatlar ko'pincha psixologiya sohasidagi turli tushunchalarni aniqlash va tushuntirishga ko'mak beradi. Quyida psixologik kitoblarda eng ko'p uchraydigan psixologik terminlarning xususiyatlari keltirilgan:

1. Ta'rif. Psixologik terminlar odatda ma'lum bir tushuncha yoki fikrning ma'nosini aniqroq ta'riflab beradi. Ma'lum bir so'zlarning ta'riflari kitobxon yoki

o'quvchilarga psixologik kontekstlardagi terminlar va ularning ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

2. Izoh. Psixologik terminlar odatda fikrni izohlaydigan izohlar bilan keladi ya'ni psixologik nazariyalar yoki psixologik hodisalar bilan qanday bog'liqligini, nima uchun muhimligini, qanday vazifada kelayotganini chuqurroq izohlaydi.

3. Misollar. Yozuvchilar misollarni asosan psixologik terminlarni hayotiy vaziyatlarda qanday namoyon bo'lishini ko'rsatish uchun ishlatalishadi. Berilgan misollar o'quvchilarga nazariy tushunchalarni amalda tadbiq etishda yordam beradi.

4. Tarixiy kontekstlar. Psixologik terminlar o'z ichiga psixologiya sohasining tarixiy rivojlanishi va shu kungacha rivojlanishidagi ma'lumotlarni ham olishi mumkin. Ma'lum bitta terminning tarixiy kontekstini bilish uning qanchalik ahamiyatli va dolzarbli haqida benazir ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniga ega bo'ladi.

5. Boshqa terminlar bilan aloqadorligi. Psixologik terminlar odatda psixologiyadagi boshqa tushuncha va terminlar bilan bog'liqdir. Mualliflar bu aloqadorlikni turli tushunchalarni qanday qilib bir- biriga o'zaro bog'langanligini va bir-biriga o'zaro ta'sirini ko'rsatish uchun tushuntirib berishlari mumkin.

6. Tadqiqot natijalari. Psixologik terminlar amaliy o'rghanishlar yoki tadqiqot natijalari orqali mustahkamlanishi mumkin. Mualliflar konsepsiya yoki nazariyaning haqiqiyligini isbotlash uchun tegishli tadqiqotlarga murojaat qilishlari mumkin.

7. Iqtiboslar. Mualliflar asosan ma'lum bir psixologik terminni tushuntirishga hissa qo'shgan mavzuga doir manbalar, ilmiy tadqiqot ishlari yoki mustaqil ishlarga iqtibos berishadi bu iqtiboslar o'quvchilarga shu termin haqida qo'shimcha ma'lumotlar o'rghanishda yoki uning asl kelib chiqishini bilish imkonini beradi.

8. Tanqidiy tahlil. Psixologik kitoblardagi psixologik terminlar psixologik kitoblardagi tandiqliy tahlil va o'rghanib chiqishga, terminni baholashga bog'liq bo'lishi mumkin. Mualliflar ko'pincha tandiqliy tahlil va muzokaralarni qullab – quvvatlash maqsadida bahs-munozaralar va muqobil qarashlar ustida tortishuvlar o'tkazishadi.

9. Amaliy qo'llanishi yoki dolzarbli. Psixologik terminlar ko'pincha klinik amaliyot, ta'lim, psixologiya yoki ijtimoiy sohalarda qo'llanishi nuqtai nazaridan

muhokama qilinadi. Mualliflar biron bir terminga qanday qilib hayotiy muammolarni hal qilishi mumkinligiga alohida e'tibor qaratishlari mumkin.

Umuman olganda, psixologiyaga oid bo'lgan kitoblarda psixologik terminlar o'quvchilarga psixologiya sohasida uchraydigan nafaqat sodda tushunchalarni balki murakkab tuzilishdagi fikrlar, nazariyalar hamda voqeа-hodisalarni to'laqonli anglashga yordam beradi. Ushbu xususiyatlarni asosiy maqsadi psixologiya sohasidagi talabalar, amaliyotchilar va tadqiqotchilar orasida to'laqonli tushunishni, o'r ganishni osonlashtirishni va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Крысин Л. П. Толковый словарь иноязычных слов. - М., 1998. – 503 с.
2. Husanov N. A. va boshqalar. O'zbek tili. - Toshkent, Excellent Polygraphy, 2020.
3. Ahmedov O.S. Ingliz va o'zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari. Filol. fan. dok-ri..diss. - T., 2016, B. 56.

## **A COMPARATIVE STUDY OF ABBREVIATIONS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

*Aziza ABSALOMOVA*  
*First-year Master's student of*  
*Uzbekistan State University of World Languages*

**Annotation.** This article presents an in-depth comparative investigation into the usage of abbreviations in two distinct linguistic contexts: English and Uzbek. Abbreviations serve as essential linguistic tools, condensing lengthy expressions into succinct forms, thereby enhancing communication efficiency. Through a detailed examination of the linguistic structures, usage patterns, and cultural implications of abbreviations in both languages, this study aims to uncover significant similarities and differences. By analyzing various types of abbreviations, including acronyms, initialisms, and contractions, across written and spoken discourse, the research sheds light on the diverse communicative functions they serve. Additionally, the study delves into the cultural influences shaping abbreviation usage, exploring how socio-political contexts and historical legacies impact the formation and interpretation of abbreviations. Ultimately, this comparative analysis contributes to a deeper understanding of language dynamics and cultural nuances, offering valuable insights for language learners,